

**MDH MAMLAKATLARI PROKURATURA ORGANLARIDA
SUN'IY INTELLEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI****Nasullayev Shahzodjon Shuxrat o'g'li**

Huquqni Muhofaza qilish Akademiyasi tadqiqotchisi.

e-mail: nasullayevshahzodjon@gmail.com**<https://doi.org/10.5281/zenodo.19743976>**

Аннотация. Ushbu maqolada MDH mamlakatlari prokuratura organlari faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashning nazariy, huquqiy va amaliy jihatlari har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida sun'iy intellekt tushunchasining ilmiy yondashuvlari, uning huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimidagi ahamiyati hamda prokuratura faoliyatidagi o'rni o'rganiladi. Shuningdek, MDH davlatlarida prokuratura tizimini raqamlashtirish, sun'iy intellekt vositalarini joriy etish bo'yicha mavjud normativ-huquqiy asoslar qiyosiy tahlil qilinadi. Jinoyatchilikni aniqlash, uni oldindan prognoz qilish, tergov ustidan nazoratni kuchaytirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarida sun'iy intellekt imkoniyatlari yoritiladi. Shu bilan birga, algoritmik oshkoralik, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va inson huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq dolzarb muammolar ko'rib chiqiladi. Yevropa Ittifoqi hamda Xitoy tajribasi asosida ilg'or amaliyotlar tahlil qilinib, ularni MDH mamlakatlari sharoitida qo'llash istiqbollari asoslab beriladi.

Tadqiqot yakunida prokuratura organlari faoliyatida sun'iy intellektdan samarali foydalanishni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Калит so'zlar: sun'iy intellekt, prokuratura organlari, MDH mamlakatlari, raqamlashtirish, algoritmik shaffoflik, axborot xavfsizligi, huquqni muhofaza qilish, qiyosiy-huquqiy tahlil.

Аннотация. В данной статье комплексно исследуются теоретические, правовые и практические аспекты применения технологий искусственного интеллекта в деятельности органов прокуратуры стран СНГ. В рамках исследования рассматриваются научные подходы к понятию искусственного интеллекта, его значение в системе правоохранительных органов, а также роль в деятельности прокуратуры.

Кроме того, проводится сравнительно-правовой анализ нормативно-правовой базы государств СНГ в сфере цифровизации прокуратуры и внедрения интеллектуальных технологий.

Освещаются возможности искусственного интеллекта при выявлении преступности, прогнозировании криминогенной ситуации, осуществлению надзора за расследованием и автоматизации управленческих решений. Особое внимание уделяется вопросам алгоритмической прозрачности, информационной безопасности, защите персональных данных и соблюдению прав человека. На основе опыта Европейского союза и Китая анализируются передовые подходы и обосновываются перспективы их использования в странах СНГ. По итогам исследования сформулированы предложения по совершенствованию использования искусственного интеллекта в деятельности органов прокуратуры.

Ключевые слова: искусственный интеллект, органы прокуратуры, страны СНГ, цифровизация, алгоритмическая прозрачность, информационная безопасность, правоохранительная деятельность, сравнительно-правовой анализ.

Abstract. This article comprehensively examines the theoretical, legal, and practical aspects of using artificial intelligence technologies in the activities of prosecutorial authorities

in CIS countries. The study explores doctrinal approaches to the concept of artificial intelligence, its significance within the law enforcement system, and its institutional role in prosecutorial practice. In addition, a comparative legal analysis is conducted of the regulatory frameworks governing digital transformation and AI implementation in prosecution systems across CIS states. The paper highlights the capabilities of AI in crime detection, predictive analytics, supervision over investigations, and automation of decision-making processes. Particular attention is given to issues of algorithmic transparency, data security, personal data protection, and the safeguarding of human rights. Based on the experience of the European Union and China, advanced foreign approaches are analyzed, and the prospects for their adaptation within CIS countries are substantiated. The study concludes with scientifically grounded recommendations aimed at improving the effective use of artificial intelligence in prosecutorial activities.

Keywords: artificial intelligence, prosecutorial authorities, CIS countries, digitalization, algorithmic transparency, data security, law enforcement, comparative legal analysis.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida davlat boshqaruvi tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari yangi bosqichga ko'tarildi. Mazkur jarayon huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, ularning ish uslubi, boshqaruv mexanizmlari va nazorat shakllarini zamonaviylashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu nuqtai nazardan, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish prokuratura organlari faoliyatini samarali tashkil etish, tahliliy salohiyatni oshirish hamda qonuniylikni ta'minlashning innovatsion vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda¹.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlash, protsessual hujjatlarni tayyorlash, jinoyatchilik holatini prognozlash, sud va tergov amaliyotini tahlil qilish, shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim yordamchi instrumentga aylanmoqda². Ayniqsa, prokuratura organlari faoliyatining ko'p qirrali va yuqori mas'uliyat talab etuvchi xususiyati ushbu texnologiyalarni qo'llash istiqbollari yanada dolzarb etadi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida ham prokuratura organlarini raqamlashtirish, elektron nazorat mexanizmlarini joriy etish, ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash hamda sun'iy intellekt elementlarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha muayyan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasida prokuratura faoliyatini modernizatsiya qilishga qaratilgan konseptual dasturlar qabul qilingan bo'lib, ular kelgusida sun'iy intellektdan keng foydalanish uchun zarur institutsional asosni shakllantirmoqda³. Shu bilan birga, prokuratura tizimiga sun'iy intellektni joriy etish faqat texnologik masala bo'lib qolmay, balki huquqiy, tashkiliy va etik jihatlarni ham qamrab oladi. Xususan, algoritmik shaffoflik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, qarorlar uchun javobgarlik, inson huquqlarini ta'minlash hamda sun'iy intellektning vakolat chegaralarini belgilash kabi masalalar chuqur ilmiy tahlilni talab etadi.

¹ Арзуманян А.Э. Применение систем искусственного интеллекта в уголовно-процессуальной деятельности прокурора: преимущества и недостатки // Юридические исследования. 2025. №12.

² Багинский В.Д. Правовая природа и специфика реализации искусственного интеллекта в российской судебной системе // Правовая информатика. 2026. №1.

³ Арзуманян А.Э. Применение систем искусственного интеллекта в уголовно-процессуальной деятельности прокурора: преимущества и недостатки // Юридические исследования. 2025. №12.

Mazkur holatlar MDH mamlakatlari prokuratura organlarida sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish istiqbollarini kompleks o'rganish, mavjud tajribani qiyosiy tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zaruratini belgilaydi. Shu bois ushbu maqolada prokuratura faoliyatida sun'iy intellektdan foydalanishning nazariy-huquqiy asoslari, xorijiy tajriba, amaliy yo'nalishlari va istiqbollari ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etiladi.

Zamonaviy huquqshunoslik fanida sun'iy intellekt (SI) tushunchasining yagona va universal ta'rifi bo'yicha hali ham yakdil to'xtamga kelinmagan. Bu holat mazkur fenomenning ko'p qirraliligi va turli fan sohalari (matematika, neyrofiziologiya, informatika va yurisprudensiya) kesishmasida joylashganligi bilan izohlanadi⁴. Sun'iy intellekt tushunchasiga nazariy yondashuvlar. SI mohiyatiga ko'ra, insonning kognitiv funksiyalarini (o'rganish, tajriba asosida qaror qabul qilish, yangi vaziyatlarga moslashish) taqlid qila oladigan murakkab dasturiy-apparat majmuasidir. Ilmiy adabiyotlarda SI ko'pincha "mashina ongi" yoki "aqli tizim" sifatida talqin etiladi. Xususan, P.M. Morxatning ta'rifiga ko'ra, SI — bu inson ongi bilan an'anaviy ravishda bog'liq bo'lgan qobiliyatlarga, ya'ni tilni tushunish, mantiqiy fikrlash va muammolarni mustaqil hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan avtonom tizimdir⁵.

Huquqiy doktrinada SI tizimlarining ikki asosiy shakli farqlanadi:

Virtual tizimlar: Ovozli yordamchilar va tasvirlarni tahlil qilish dasturlari kabi faqat dasturiy ta'minotga asoslangan "yumshoq" qobiqdagi tizimlar.

Kiberfizik tizimlar: Robototexnika va avtonom transport vositalari kabi jismoniy tanaga ega bo'lgan "qattiq" qobiqdagi tizimlar⁶. Shuningdek, SIning murakkablik darajasiga ko'ra "zaif" (cheklangan vazifalarni bajaruvchi) va "kuchli" (inson darajasidagi umumlashgan aqlni namoyish etuvchi) turlarga bo'linishi uning huquqiy maqomini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sun'iy intellektning huquqiy mohiyati. SIning huquqiy mohiyatini belgilashda asosiy bahs-munozaralar uning huquqiy munosabatlardagi o'rni — SI huquq ob'ekti (buyum) yoki huquq sub'ekti (shaxs) ekanligi atrofida kechmoqda.

SI huquq ob'ekti sifatida: Hozirgi kunda aksariyat mamlakatlar qonunchiligida SI inson tomonidan yaratilgan va boshqariladigan mulk turi yoki murakkab texnologik vosita sifatida ko'riladi. Bu yondashuvda SIning harakatlari uchun javobgarlik uning egasi yoki ishlab chiquvchisi zimmasiga yuklanadi. SI kvazi-sub'ekt ("elektron shaxs") sifatida: Tizimlarning avtonomligi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ortishi bilan, ularga maxsus huquqiy maqom berish g'oyasi ilgari surilmoqda. Yevropa Parlamenti tomonidan ilgari surilgan "elektron shaxs" (electronic person) konsepsiyasi bunga misol bo'la oladi⁷. Bunda SI cheklangan huquq va majburiyatlarga, jumladan, yetkazilgan zarar uchun mustaqil fuqarolik javobgarligiga ega bo'lishi nazarda tutiladi.

SIning huquqiy mohiyati prokuratura va adliya organlari faoliyati prizmasida ko'rilganda, uning "algoritmik shaffofligi" (tushuntirilishi) muammosi markaziy o'ringa chiqadi. Tizimning "qora quti" (black box) tamoyili asosida ishlashi, ya'ni yakuniy xulosaga qanday mantiqiy yo'l bilan kelganligini inson tushunolmasligi, odil sudlovning qonuniylik va asoslantirilganlik

⁴ Filipova I.A. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma'ruzalar kursi (Z.O. Kuvandikov tarjimai). – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. – 179 b.

⁵ Morkhat P.M. Iskustvenniy intellekt: pravovoy vzglyad (Sun'iy intellekt: huquqiy ko'rinish). – Moskva: Buki Vedi, 2017. – 257 s.

⁶ Morkhat P.M. Iskustvenniy intellekt: pravovoy vzglyad (Sun'iy intellekt: huquqiy ko'rinish). – Moskva: Buki Vedi, 2017. – 257 s.

⁷ Filipova I.A. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma'ruzalar kursi (Z.O. Kuvandikov tarjimai). – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. – 179 b.

tamoyillariga zid kelishi mumkin⁸. Shu sababli, SIning huquqiy tabiatini tartibga solishda inson huquqlari ustuvorligi va tizim ustidan doimiy inson nazoratini (human-in-the-loop) ta'minlash eng muhim huquqiy talablar sifatida belgilanmoqda.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) hududida prokuratura organlari faoliyatini raqamlashtirish jarayoni bugungi kunda shunchaki ish yuritishni avtomatlashtirish bosqichidan o'tib, sun'iy intellekt (SI) tizimlarini prokurorning jinoyat-protsessual faoliyatiga tizimli integratsiya qilish darajasiga ko'tarilmoqda. Strategik yo'nalishlar va transformatsiya. MDH mamlakatlarida raqamlashtirish jarayoni uzoq muddatli davlat strategiyalari asosida amalga oshirilmoqda. Xususan, Rossiya Federatsiyasida "Prokuratura organlarining 2030-yilgacha bo'lgan raqamli transformatsiyasi konsepsiyasi" doirasida SI texnologiyalarini huquqiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida joriy etish nazarda tutilgan⁹. O'zbekiston tajribasida ham prokuratura tizimini to'liq raqamlashtirish va kadrlar tarkibiga IT-mutaxassislarini integratsiya qilish orqali nazorat samaradorligini oshirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Prokuror faoliyatida SI-assistentlarning o'rni. Zamonaviy tendensiyalar prokurorlar uchun maxsus "aqli yordamchi" tizimlarini yaratishga qaratilgan.

SI tizimlari minglab sahifalik jinoyat ishi hujjatlarini, so'roq bayonnomalari va ekspertiza xulosalarini semantik tahlil qilish, ulardagi ziddiyatlarni inson omiliga qaraganda tezroq aniqlash imkonini beradi. Prokurorning ayblov nutqi, protsessual hujjatlar va tahliliy ma'lumotnomalar loyihalarini avtomatik generatsiya qilish orqali prokurorning ish yukini kamaytirish va uning faoliyatini strategik tahlilga yo'naltirish maqsad qilinmoqda.

Huquqiy va axloqiy muammolar. Raqamlashtirishning jadallashishi bir qator huquqiy xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Eng asosiy muammolardan biri — bu SI tomonidan qabul qilingan "mashina xulosalari"ning huquqiy maqomidir. P.M. Morxat ta'kidlaganidek, SI tizimlarining avtonomligi oshishi bilan ularning harakatlari uchun javobgarlik masalasi va protsessual mustaqillik o'rtasidagi muvozanatni saqlash dolzarb bo'lib qoladi¹⁰. Shuningdek, "qora quti" effekti, ya'ni algoritmnining qanday xulosaga kelganligini tushuntirib bera olmasligi, odil sudlovning shaffoflik tamoyiliga soya solishi mumkin. Shu sababli, MDH mamlakatlarida raqamlashtirishning asosiy tendensiyasi sifatida "tushuntiriladigan sun'iy intellekt" (XAI) modellarini yaratish va tizim ustidan doimiy inson nazoratini saqlab qolish belgilangan. Eng asosiy metodologik muammolardan biri-bu SI algoritmlarining o'ta murakkabligi sababli ularning yakuniy xulosaga qanday mantiqiy yo'l bilan kelganini inson (prokuror yoki sudya) tomonidan tushunib bo'lmastir. Bu holat protsessual hujjatlarning asoslantirilgan bo'lishi haqidagi qonuniy talablarga zid keladi¹¹. Agar prokuror SI tavsiya qilgan ayblov xulosasining mantiqiy zanjirini tushuntirib bera olmasa, bu odil sudlovning shaffoflik tamoyilini buzadi.

SI tizimlari avtonom ravishda qaror qabul qila boshlagan sari, ularning xatosi natijasida yetkazilgan zarar uchun kim javobgar bo'lishi masalasi ochiq qolmoqda. P.M. Morxat ta'kidlaganidek, SI na jismoniy, na yuridik shaxs maqomiga ega emas, biroq u huquqiy oqibat

⁸ Arzumanyan A.E. *Primenenie sistem iskusstvennogo intellekta v ugovovno-protsessualnoy deyatelnosti prokurora: preimushchestva i nedostatki // Yuridicheskie issledovaniya. – 2025. – № 12. – S. 56-72.*

⁹ Filipova I.A. *Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma'ruzalar kursi (Z.O. Kuvandikov tarjimai). – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. – 179 b.*

¹⁰ Morkhat P.M. *Iskusstvenniy intellekt: pravovoy vzglyad (Sun'iy intellekt: huquqiy ko'rinish). – Moskva: Buki Vedi, 2017. – 257 s.*

¹¹ Arzumanyan A.E. *Primenenie sistem iskusstvennogo intellekta v ugovovno-protsessualnoy deyatelnosti prokurora: preimushchestva i nedostatki // Yuridicheskie issledovaniya. – 2025. – № 12. – S. 56-72.*

keltirib chiqaruvchi harakatlarni amalga oshiradi¹². SIning "elektron shaxs" sifatida tan olinmasligi uning harakatlari uchun prokuror yoki ishlab chiquvchining javobgarligi masalasida huquqiy bo'shliqlarni yuzaga keltirmoqda. SI tizimlaridan keng foydalanish prokurorning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini susaytirishi mumkin. Bunda ikki turdagi xavf yuzaga keladi:

Prokuratura organlaridagi katta hajmdagi maxfiy ma'lumotlarni SI tizimlariga qayta ishlash uchun berish kiberxavfsizlik masalasini dolzarblashtiradi. Manbalarda qayd etilishicha, tizimning tashqi aralashuvga chidamliligi va shaxsga doir ma'lumotlarning himoyalaniishi SI joriy etishdagi eng katta texnik-huquqiy to'siqlardan biridir¹³.

I.A. Filipovanning qayd etilishicha, texnologik taraqqiyot qonunchilikka qaraganda tezroq rivojlanmoqda. Mavjud protsessual kodekslar (masalan, JPK) SI tomonidan to'plangan yoki tahlil qilingan ma'lumotlarning daliliy kuchini, ularni tekshirish va ularga nisbatan shikoyat qilish tartibini hali to'liq qamrab olmagan. SI joriy etishdagi muammolar faqat texnik xarakterga ega emas, balki ular odil sudlovning fundamental prinsiplari (mustaqillik, asosiylik, shaffoflik) bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli, tizim ustidan doimiy inson nazoratini saqlab qolish va "tushuntiriladigan sun'iy intellekt" modellarini yaratish strategik vazifa hisoblanadi.

Prokuratura tizimida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi bugungi kunda texnik yordamchi darajasidan protsessual jarayonlarning intellektual ishtirokchisi darajasiga o'tmoqda. Ushbu rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlarini quyidagicha tahlil qilish mumkin.

Kelajakda prokuratura faoliyatida "proaktiv nazorat" tizimi ustuvorlik kasb etadi. Bu yo'nalishda SI algoritmlari davlat xaridlari, budget mablag'larining sarflanishi va ekologik nazorat sohalarida inson omilisiz real vaqt rejimida monitoring olib boradi¹⁴. O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan strategiyasi doirasida SI tizimlari korrupsion xavf-xatarlarni erta aniqlash va qonun buzilishlarini sodir etilishidan avval bashorat qilish (predictive policing) imkonini beradi¹⁵. Rivojlanishning keyingi bosqichi prokurorning tergov ustidan nazorat va sudda ayblovni quvvatlash funksiyalarini avtomatlashtirishni nazarda tutadi. Bunda SI tizimlari quyidagi vazifalarni bajarishi kutilmoqda. SI minglab sahifalik jinoyat ishi materiallari orasidan bir-biriga zid ko'rsatmalarni va protsessual xatolarni soniyalar ichida aniqlab beradi¹⁶. Tizim mavjud dalillar va sud amaliyotidan kelib chiqib, protsessual hujjat loyihalarini tayyorlaydi, prokuror esa faqat yakuniy nazorat va tahrir funksiyasini saqlab qoladi.

Huquqiy tizimdagi eng katta to'siq bo'lgan "qora quti" muammosini hal qilish uchun kelajakda faqatgina "tushuntiriladigan" algoritmlarni joriy etish tendensiyasi kuchayadi. Bu prokurorga SI chiqargan xulosaning huquqiy va mantiqiy asoslarini sudga tushuntirib berish imkonini beradi, bu esa odil sudlovning shaffoflik tamoyilini kafolatlaydi.

O'zbekistondagi so'nggi islohotlar (PF-110) doirasida prokuratura, ichki ishlar, sudlar va boshqa davlat organlarining ma'lumotlar bazalarini to'liq integratsiya qilgan holda "katta ma'lumotlar" (Big Data) ekotizimini yaratish nazarda tutilgan. Bu tizim SIga jinoyatchilik dinamikasini milliy miqyosda tahlil qilish va samarali qarorlar qabul qilish uchun asos yaratadi.

¹² Morkhat P.M. Iskusstvenniy intellekt: pravovoy vzglyad (Sun'iy intellekt: huquqiy ko'rinish). – Moskva: Buki Vedi, 2017. – 257 s

¹³ Filipova I.A. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma'ruzalar kursi (Z.O. Kuvandikov tarjimai). – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. – 179 b.

¹⁴ PF-110-son Farmon. O'zbekiston Respublikasining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi" // lex.uz.

¹⁵ PQ-304-son Qarori. "Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar" // lex.uz.

¹⁶ Arzumanyan A.E. Primenenie sistem iskusstvennogo intellekta v ugolovno-protsessualnoy deyatelnosti prokurora // Yuridicheskie issledovaniya. – 2025. – № 12.

Uzoq muddatli istiqbolida SIning huquqiy maqomi bo'yicha doktrinalar o'zgarishi kutilmoqda. P.M. Morxat qayd etganidek, SI tizimlarining avtonomligi oshishi ularga "kvazi-sub'ekt" yoki "elektron shaxs" sifatida cheklangan huquqiy maqom berish masalasini kun tartibiga chiqaradi. Bu esa o'z navbatida, SI tomonidan qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlikning maxsus huquqiy rejimini ishlab chiqishni talab etadi.

MDH va O'zbekistonda prokuratura tizimining kelajagi "Inson va SI" hamkorlik modeliga tayanadi. Bunda texnologiya prokuror o'rnini bosmaydi, balki uning tahliliy imkoniyatlarini kengaytirib, qonun ustuvorligini ta'minlashning yuqori texnologik mexanizmiga aylanadi¹⁷.

Xulosa

MDH mamlakatlari, xususan O'zbekiston prokuratura organlari faoliyatida sun'iy intellekt (SI) imkoniyatlaridan foydalanish istiqbollari tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur texnologiya huquqiy tizimning ajralmas va intellektual qismiga aylanmoqda. SI nafaqat texnik yordamchi, balki o'ziga xos avtonomiyaga ega bo'lgan subyekt sifatida namoyon bo'layotgani sababli, qonunchilikka uning harakatlari uchun javobgarlikning maxsus huquqiy rejimlarini kiritish davr talabidir. Rivojlanish tendensiyalari prokuror nazoratini "proaktiv" modelga o'tkazishni, ya'ni huquqbuzarliklarni sodir etilishidan avval bashorat qilish va korrupsion xavflarni tizimli aniqlashni nazarda tutadi. Biroq, ushbu jarayonda "qora quti" effekti va algoritmik tarfakashlik kabi muammolar odil sudlovning shaffoflik tamoyiliga soya solmasligi lozim. Shu sababli, tizim ustidan doimiy inson nazoratini saqlab qolish va faqatgina tushuntirilishi mumkin bo'lgan (XAI) algoritmlardan foydalanish strategik zaruriyat hisoblanadi.

Raqamli transformatsiyaning huquqiy sur'atdan o'zib ketishi natijasida yuzaga kelayotgan vakuum holatlarini bartaraf etish uchun amaldagi protsessual kodekslarni SI imkoniyatlariga moslashtirish dolzarb vazifadir. Yakuniy xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, prokuratura tizimining kelajagi "Inson aqli va Sun'iy intellekt" hamkorligiga tayanadi.

Bunda texnologiya prokurorning o'rnini bosish uchun emas, balki uning tahliliy imkoniyatlarini kengaytirish va jamiyatda qonun ustuvorligini yanada adolatli ta'minlash uchun xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-110-son Farmoni // lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-304-son Qarori // lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // lex.uz.

Ilmiy adabiyotlar va monografiyalar:

4. **Filipova I.A.** Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma'ruzalar kursi (Rus tilidan Z.O. Kuvandikov tarjimasini; mas'ul muharrir A.R. Axatov). – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2022. – 179 b.

¹⁷ PF-110-son Farmon. O'zbekiston Respublikasining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi" // lex.uz.

5. **Morkhat P.M.** Iskusstvenniy intellekt: pravovoy vzglyad (Sun'iy intellekt: huquqiy ko'rinish). Nauchnaya monografiya. – Moskva: Buki Vedi, 2017. – 257 s.
6. **Arzumanyan A.E.** Primenenie sistem iskusstvennogo intellekta v ugovno-protsessualnoy deyatelnosti prokurora: preimushchestva i nedostatki (Sun'iy intellekt tizimlarini prokurorning jinoyat-protsessual faoliyatida qo'llash: afzalliklar va kamchiliklar) // Yuridicheskie issledovaniya. – 2025. – № 12. – S. 56-72.
7. **Ponkin I.V., Redkina A.I.** Iskusstvenniy intellekt s tochki zreniya prava // Vestnik RUDN. Seriya: Yuridicheskie nauki. – 2018. – T. 22. – № 1. – S. 91-109.

Elektron resurslar:

8. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.
9. Rossiya Federatsiyasi prokuraturasi raqamli transformatsiyasi konsepsiyasi – www.genproc.gov.ru.